



**SAID AHMAD ASARLARIDA FONOSTILISTIK VOSITALARNING BADIY
TALQINI**

Boboqulova Sevinch Ulug'bek qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti talabasi

Sharipova Munira Xamidullayevna,

Ilmiy rahbar:

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad ijodining badiiy xususiyatlari, xususan, uning "Sobiq" va "Qoplon" hikoyalari asosida fonostilistik vositalar orqali ifodalangan g'oya va tasvirlar tahlil qilinadi. Assonans, alliteratsiya, geminatsiya, anafora, epifora, tovush ortishi, tushishi va o'zgarishlari kabi fonetik vositalarning hikoyadagi o'rni aniqlanadi hamda bu vositalarning hajviylik va realizmni ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, fonostilistik vositalarning adabiy til taraqqiyoti va badiiy obraz yaratishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Said Ahmad, fonostilistik vosita, assonans, alliteratsiya, geminatsiya, anafora, epifora, hajv, "Sobiq", "Qoplon", tovush o'zgarishi, stilistika, o'zbek adabiyoti.*

Kirish. O'zbek adabiyotining boy va sarmazmun merosi tilning badiiy imkoniyatlarini chuqur o'rganish, uning estetik vositalari orqali obraz yaratish san'atini tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, fonostilistik vositalar yordamida adiblar obrazlarni jonlantirish, muhitni sezdirish va o'quvchiga estetik zavq bag'ishlash maqsadida tovushlar tizimidan mahorat bilan foydalanishadi. Badiiy asarda tovushlarning qay tarzda uyushganligi, ularning takrorlanishi, cho'zilishi, tushishi kabi hodisalar o'quvchiga emotsional ta'sir ko'rsatadi.

Said Ahmad – o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning hajviy asarlari orasida "Sobiq" va "Qoplon" hikoyalari fonetik ifoda vositalaridan foydalanish bo'yicha alohida ajralib turadi. Bu maqolada mazkur hikoyalar asosida fonostilistik vositalarning badiiy ifodadagi o'rni tahlil qilinadi.

Fonostilistika – fonetika va stilistikaning kesishgan nuqtasida joylashgan ilmiy soha bo'lib, tovush vositalarining badiiy matnlardagi funksiyasini o'rganadi. Tilshunos olimlar – A. Yuldoshev, G'. Xudoyberganov, E. Karimovlar bu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

Fonostilistik vositalar yozuvchi nutqining ritmi, ifodaviyligi va obrazlilikini oshiradi. Ayniqsa, og'zaki nutqqa yaqinlashtirishda – tushish, o'zgarish va cho'zilishlar muhimdir.

Fonostilistik vositalar hajviy asarlarda muhim badiiy vosita sifatida ishlaydi. Tovushlar orqali nafaqat obraz, balki kulgi ham yaratiladi. Hajv – o'quvchiga kulgi orqali tanqidni



yetkazuvchi janr. Shu bois, ovoz, ohang, takror kabi elementlar muallif pozitsiyasini ifoda etadi.

Masalan, “Qoplon” hikoyasida epifora sun’iy uchrashuvlarning absurd ko‘rinishini ochib beradi. “Sobiq” hikoyasida esa geminatsiya obrazning asabiyliги va kinoyaviy so‘z ohangini kuchaytiradi.

Said Ahmad ijodida hajviylik va realizm. Said Ahmad (1920–2007) o‘zbek adabiyotida hikoya, roman va dramaturgiya janrida samarali ijod qilgan yozuvchilardan biridir. U o‘z asarlarida hayotiylik, xalqona tildan foydalanish va realistik tasvirlar orqali ijtimoiy muammolarni badiiy yo‘sinda ochib bergan. “Mening do‘stim Babbaev”, “Bo‘ri ovi”, “Xandon pista”, “Qoplon”, “Sobiq” kabi hikoyalarida jamiyatdagi laganbardorlik, dabdababozlik, rasmiyatchilik kabi illatlar hajviy ohangda fosh etiladi. Said Ahmadning uslubi xalq tiliga, so‘z boyligiga va tovush estetikasi – fonostilistik vositalarga boy. U obraz yaratishda tovushlarni muayyan maqsadda tanlab, biror hissiy holatni kuchaytirishga xizmat qildiradi.

Said Ahmadning fonostilistik uslubi G‘afur G‘ulom va Abdulla Qahhor uslubiga yaqin bo‘lsa-da, unda o‘ziga xoslik bor. U fonetik vositalarni nafaqat kulgi uchun, balki muammo mohiyatini ochish uchun ishlatadi. Shuningdek, Said Ahmad nutqdagi og‘zaki xususiyatlarni saqlab qolgan holda, badiiylikni ham ta‘minlaydi.

“Sobiq” hikoyasining fonostilistik tahlili. “Sobiq” hikoyasi bir qahramonning hayoti orqali jamiyatdagi dabdababozlik va zamonaviylik nomi ostida bo‘layotgan ma‘nosiz ishlarni tanqid qiladi. Asarda muallif hikoya qilishni obraz tilidan olib boradi, bu esa tilni jonlantiradi.

Fonostilistik vositalar: “Yo‘o‘o‘q, o‘rtoq Tillayev...” – bir tovushning cho‘zilishi dramatik vaziyat, hayrat va ishonchsizlikni ifodalaydi.

Unlining cho‘zilishi: “Yo‘o‘o‘q...” – cho‘zilgan unli hissiy bosim va taajjubni kuchaytiradi.

Tovush tushishi: “bitkazolmasmish” – og‘zaki nutqdagi talaffuzga mos holda qisqarish, xalqona va samimiy ohangni yaratadi.

Tovush o‘zgarishi: “pol yuvarkansiz” – talaffuzdagi fonetik o‘zgarish orqali real nutq manzarasi yaratiladi.

Anafora: “Xoh ishonang, xoh ishonmang...” – boshlanishdagi takror urg‘u yaratadi.

Bu vositalar qahramonning nutqiga jonlilik baxsh etadi va o‘quvchiga hayotiy holatni yaqqol ko‘rsatadi.

“Qoplon” hikoyasining fonostilistik tahlili. “Qoplon” hikoyasida muallif rasmiyatchilik, xushomadgo‘ylik va amalparastlikni tanqid qiladi. Bu asarda til va tovushlar orqali hajviy ohang yaratilgan.

Fonostilistik vositalar: Epifora: “...uchrashuv, ...uchrashuv, ...uchrashuv” – formalizm va takroriy uchrashuvlarning sun‘iyligini ochib beradi.

Alliteratsiya: “topib rossa ta‘zirini berardimu...” – “t” undoshining takrori bilan ohang va tanbeh kuchayadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Assonans: “to‘qqiz tonna paxta teribman” – “o” va “a” unlilari orqali ritm va drammatizm yaratilgan.

Bu vositalar jamiyatdagi sun'iylik va ikkiyuzlamachilikni badiiy tarzda ko'rsatish imkonini beradi.

Xulosa

Fonostilistik vositalar badiiy adabiyotda obraz va muhit yaratish, hissiy ta'sirni kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Said Ahmadning “Sobiq” va “Qoplon” hikoyalarida bu vositalar orqali jamiyatdagi salbiy holatlar hajviy ruhda, ammo chuqur g'oyaviy yuk bilan ifoda etiladi. Tovush takrorlari, cho'zilishlar, tushish va o'zgarishlar o'quvchini asarga tortadi, uni hayajonga soladi, kuldiradi va fikrlashga chorlaydi. Fonostilistik vositalar o'zbek badiiy uslubida alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2000.
2. Boboqulova S. Said Ahmad asarlaridan fonostilistik vositalarga misollar topish va ularni tahlil qilish. PPT taqdimoti. 2025.
3. Xudoyberganov G'. Adabiy til va stilistika. Toshkent: O'qituvchi, 1998.
4. Yuldoshev A. Fonostilistika asoslari. Samarqand, 2010.
5. Karimov E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan, 2003.